

BO'LAJAK RAHBARLARNING TANQIDIY TAFAKKURI

Alimova Qunduz Oybek qizi, Maktab menejmenti kafedrasи o'qituvchisi
O'ktamova Shahnoza Akrom qizi, Maktab menejmenti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak rahbarning bajarayotgan vazifasiga nisbatan tanqid qilinish asoslari, hamda uning tanqidiy fikrlash qobilyatlariga asoslangan.

Kalit so'zlar: Tanqid, tanqidiy fikrlash, egoistlik, konteksitlar, avtoritarizm, rad etish, absolutizm, egosentrizm.

So'nggi yillarda ta'lim tizimining umumta'lim bosqichida tanqidiy fikrlashni o'rgatish, o'qitish ishlari qizg'in tus oldi. Ayniqsa, muxtaram Yurtboshimizning "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 20 fevraldagи PQ-4199-sonli qarori natijasida yurtimizda tashkil etilayotgan Prezident maktablarida ta'limni davom ettirish niyatida bo'lgan o'quvchi-yoshlarni imtihonga tayyorlashda aynan tanqidiy fikrlashga doir bilimlarga ehtiyoj keskin oshdi¹.

Tanqidiy fikrlash insonning dunyoqarashida keskin burilish yasaydi. Tabiat va jamiyatda bo'layotgan voqeа-hodisalarining asl mohiyati namoyon bo'la boshlaydi. Tanqidiy fikrlash muvaffaqiyat qozonishga, baxtli yashashga, mo'may daromad topishga, hurmat qozonishga xizmat qiladi.

Har bir shaxs ongida kechayotgan fikrlarni aytganda tashqi ta'sirning to'siqlariga uchraydi. Bu to'siqlar tanqidlardir. Suqrotning takidlashicha, "Inson yaxshi hayot kechirishi uchun u tanqidiy savol beruvchi va so'roq qiluvchi ruhga ega bo'lishi kerak".

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.02.2019 yildagi PQ-4199-son

Tanqidiy fikrlash bu muammoni aniqlash va bu haqda bilimlarni sintez qilishning yetarlicha tizimli usuli bo‘lib, shu bilan siz yangi g‘oyalarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan istiqbolni yaratasiz. Rahbar bu boshqaruvchi, uning tanqidiy qarashlari bilan korxonani o‘zgartirish mumkin. Samalyot uchuvchisi suhbatda ko‘pchilik samalyotlarda parvoz qilish xavfli deb hisoblaydi, lekin aslida samalyot yerda ekanligida yanada xavfliroqdir. Nega deganda samalyot qancha ko‘p yerda tursa u shuncha tez zanglaydi va ishdan chiqadi. Rahbar shaxs ham o‘z olib borayotgan siyosatda tanqidlarga ijobiy tomondan qaramasa va to‘g‘ri tanqid qila olmasa yerda turgan samalyot kabi zanglay boshlaydi. Zamon bilan hamnafas turgandagina va unga yo‘nalgan tanqidlarni to‘g‘ri qabul qila olgandagina u rivojlanishdan aslo to‘xtamaydi.

Tanqidiy fikrlash bu xulq-atvor va e’tiqodga ko‘rsatma sifatida ma’lumotni mustaqil ravishda tahlil qilish, sintez qilish va baholash jarayoni. Amerika Falsafiy Uyushmasi tanqidiy fikrlashni "Maqsadga muvofiq o‘z-o‘zini tartibga soluvchi mulohaza yuritish jarayonidir. Jarayon esa dalillar, konteksitlar, kontseptsiyalar, usullar va mezonlarni asosli ko‘rib chiqishga imkon beradi" deb ta’riflagan. Ba’zan tanqidiy fikrlash "fikrlash haqida o‘ylash" deb ta’riflanadi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga talqin qilish, tekshirish va fikrlash qobiliyatini kiradi, bularning barchasi mantiqiy tamoyillarini qo‘llashni o‘z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlash surishtiruv vositasi sifatida juda muhimdir. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash ta’limning ozod qiluvchi kuchi va insonning shaxsiy va fuqarolik hayotidagi kuchli manbaidir. Yaxshi fikrlashning sinonimi bo‘lmasada tanqidiy fikrlash keng tarqalgan va o‘zini-o‘zi tuzatuvchi inson fenomenidir.

Halpernning fikricha, tanqidiy fikrlash avvalo muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollikni muvaffaqiyatli qo‘llash kabi o‘rganilgan qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi². Bu dunyoda hammaga tug‘ma qobiliyat in’om etilgan, biz shunchaki undan unumli foydalana olishimiz lozim. Barchaga ma’lum Martin

² https://uz.wikisko.ru/wiki/Critical_thinking

Lyuter King ham o‘z orzulari yo‘lida qobiliyatlaridan unumli foydalana olgan. Siz orzularingizni emas, orzularingiz sizni tanlashadi. Siz esa ularni tutib qola olishingiz va imkoniyatlaringizdan unumli foydalana olishingiz zarur.

Ko‘pchiligidan yarim tunda o‘g‘ri bostirib kirib barcha mol molkumizni o‘g‘irlab ketishidan qo‘rqamiz, lekin bilmaymizki aslida haqiqiy o‘g‘ri bizning miyamizda, ongimizda orzularimizni o‘g‘irlash uchun yashaydi, uning ismi qattiyatsizlik. U bizning maqsadlarimiz, orzularimizni amalga oshirish uchun to‘sinqinlik qiladi. Inson o‘z ustida qattiq mehnat qilganda barcha orzulariga erishadi. Tanqidni to‘g‘ri qabul qilish ham shu jumlasidandir. O‘z maqsadiningiza erishish yo‘lida ko‘plab qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizlikka duch kelishingiz mumkin. Bu taslim bo‘lishingiz kerak degani emas. Birgina misol dunyoga mashhur Stivens Bilberg uch marotaba rejissyorlik maktabidan haydalgan.

Opera Vinfer televide niye uchun noloyiq deb topilgan, Bions kuylagan qo‘shiqlari qattiq tanqid ostiga olingen ammo ularning hech biri ortga chekinishni hayoliga ham keltirmagan. Hozirda bu insonlarning qay darajada mavqeiga ega ekanliklari barchamizga ma’lum. Shuni unutmaslik kerakki qiyinchiliklar va tanqidlar taraqqiyot mevasi bo‘lib xizmat qiladi. Barchasi insonning o‘ziga bog‘liq, qiyinchiliklarga chidam va bardosh berib o‘z orzularingizni ro‘yobga chiqarishingiz yoki aksincha birgina otilgan tanqid toshiga dosh berolmay oxir oqibatda afsus va nadomat ichida qolish ham mumkin³.

Tanqidiy fikrlash yettita tanqidiy xususiyatga ega:

- 1 Qiziquvchan va qiziquvchan
2. Turli tomonlarga ochiq fikrli
3. Tizimli fikr yurita oladigan
4. Tahliliy
5. Haqiqatga qattiyatli
6. Tanqidiy fikrlashning o‘ziga ishonch bildiradigan

³SOROS xalqaro ochiq jamiyatining “Taqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari” fanlararo dasturi. T., 2004.

7. Yetuk

Garchi tanqidiy fikrlashni bir necha xil usullar bilan aniqlash mumkin bo‘lsa-da uning asosiy tarkibiy qismida umumiy kelishuv mavjud - qoniqarli natijaga erishish istagi va bunga oqilona fikrlash va natija asosida erishish kerak.

Ideal tanqidiy fikrlovchi odatdagidek qiziquvchan, bilimdon, aqlga ishonuvchan, ochiq fikrli, baholashda adolatli, shaxsiy xolisliklarga duch kelishda halol, hukm chiqarishda ehtiyyotkor, qayta ko‘rib chiqishga tayyor, masalalarni aniq kompleksda tartibli tegishli ma’lumotlarni qidirishga g‘ayratli, mezonlarni tanlashda oqilona, so‘rovga yo‘naltirilgan va so‘rovning predmeti va sharoitlari kabi aniq natijalarni izlashda qat’iy bo‘lgan masalalar. Amerika Falsafiy Uyushmasi “Taqidiy fikrlash” to‘g‘risida bayonot bergan. Tanqidiy fikrlash odatda akademik qattiylikni oshiradi. Bu tafakkur kurashi va insonning intelektual kuchlarining o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, talabalarni o‘rganishining asl mohiyatini uyg‘otadi. Ennisning tarifiga ko‘ra, tanqidiy fikrlash katta e’tibor va miya faoliyatini talab qiladi. Tanqidiy fikrlash yondashuvi ta’limga tadbiq etilsa, bu o‘quvchining miyasini yaxshi ishlashiga va matnlarni turlicha tushunishiga yordam beradi. Mantiqiy dalillarni o‘rganish tanqidiy fikrlashni o‘rganish bilan bog‘liq. Mantiqiy dalillarni tahlil qilish, shu jumladan ularning to‘g‘riliqi yoki noto‘g‘riliqini baholash bilan bog‘liq. Tanqid, tanqid qiluvchilar egoistlar deb atalsada aynan shu shaxslar tanlagan yo‘lingizni bexato deb o‘ylaganingizda ulardan bir nechta xatolar topa oluvchilardir.

Taqidiy fikrlash tufayli inson o‘zining ichki kechinmlari va tashqi olam o‘rtasidagi muvozanatni nazorat qila olishi va boshqarishi mumkin. Tanqidiy fikrlash asosida o‘quvchilar o‘zlarining qiziqish va qobiliyatlarini to‘g‘ri baholay oladi, o‘zlariga to‘g‘ri baho bera oladilar. Bu esa kasb tanlash jarayonidagi muhim omil hisoblanadi. O‘quvchilar o‘zlarini qiziqtirgan kasbni tanlashlari bilan birgalikda tanlagan kasblari uchun zarur bo‘lgan bilim manbalarini ham aniqlay oladilar, anglay oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova, Q. (2021). FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONALARING ASOSIY XATOLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/594>
2. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Джизакское инновационное образование, 1(1). извлечено от <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
3. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
4. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>
5. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. Jizzax innovatsion ta'limi , 1 (1). <Https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
6. Аблякимова, Р., & Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
7. Alimova, K. O. K., Toshboyeva, K. M. K., & Ungarov, B. T. U. (2021). TODAY'S STUDENT IS TOMORROW'S LEADER. *Scientific progress*, 2(2), 308-310. <https://cyberleninka.ru/article/n/todays-student-is-tomorrows-leader>

8. Alimova, Q. (2021). TALABALAR TURAR JOY MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3636>
9. Alimova, Q. (2021). PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF THE RICHBAR PERSON IN THE MANAGEMENT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3651>
10. Isankulova , M. ., & Alimova, . Q. . (2021). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRILISH MASALALARI. *Научно-просветительский журнал "Наставник"*, (1). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/science/article/view/1180>
11. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 11(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052.
12. Botirov, B. F., Usmonov, J., &Ablyakimova, R. I. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles And Modern Innovations. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES*, 53–57
13. Аблякимова, Р., &Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
14. Аблякимова, Р., &Usmonov, A. (2021). Умумтаълиммактабнисамаралибошқаришдаянгичаёндошув. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1537>

15. Аблякимова, Р. (2021). НОДАВЛАТ МАКТАБЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1536>.
16. Аблякимова, Р. (2021). ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1527>.
17. Аблякимова, Р. (2021). O'ZBEKISTONDA IT SOHASINING LOKOMOTIVI. *Zamonaviyta 'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, 1(3). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4085>
18. Ablyakimova, R. I. (2022). THE ROLE OF WOMEN IN GOVERNMENT AND SOCIETY IN UZBEKISTAN. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(2), 1-9.
19. Nazarov, T. (2021). КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ - ИДЕАЛЬНАЯ ОСНОВА ДЛЯ БУДУЩИХ ПРОФЕССИЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://fll.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/459>
20. Toshboyeva, N. (2021). ZAMONAVIY MENEJER VA YETAKCHI. *Mir исследований*, 1(1). извлечено от <https://presedu.jspi.uz/index.php/journal/article/view/937>
21. Usmonov, A. (2021). IQTISODIY SAVODXONLIK VA IQTISODIY TA'LIMNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1326>
22. B. F. Botirov, J. Usmonov, & R. I. Ablyakimova. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles And Modern Innovations . INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT

RESEARCH CONFERENCES, 53–57. Retrieved from
<https://usajournalshub.com/conferences/index.php/iscrc/article/view/66>

23. Botirov, S. (2022). Рақамли иқтисодиётни шакллантириш жараёнида илмий инновацион фаолиятни шакллантириш . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4793>
- 24.Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).
- 25.Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>
- 26.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.
- 27.Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
- 28.Dilfuza Qarshiboyeva, КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): *Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari*
- 29.Qarshiboyeva, D. (2021). ЁШЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШДА ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАР ҲАҚИДАГИ БИЛИМЛАР УЗЛУКСИЗЛИГИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2906>